



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining 2024-yilda davlat umumiy o'rta ta'lif muassasalari direktori va direktor lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish rejasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat umumiy o'rta ta'lif muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2023-yil 25-dekabrdagi 681-son qarori ijrosini ta'minlash hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlardagi umumiy o'rta ta'lif muassasalari direktorlari uchun menejerlik o'quv kurslarini samarali tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi 681-son qarorida davlat umumiy o'rta ta'lif muassasalari direktori va direktor lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslariga jalb etilgan nomzodlar ro'yxati ularning arizalari asosida A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan shakllantirilishi hamda tasdiqlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Menejerlik o'quv kurslarining yakuniy sinovlarida amaliy topshiriqlarni baholash va yakuniy sinovlarni o'tkazadigan imtihon komissiyalari 3 yoki 5 nafardan iborat tarkibda tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 28-dekabrdagi 578-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Menejerlik o'quv kurslarining amaliy topshiriqlarini baholash va imtihon komissiyasini tashkil etish tartibiga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari:

direktorlar uchun tashkil etilayotgan "Menejerlik o'quv kurslari"ga maktab direktorlari ro'yxatini har oyning 10-sanasiga qadar Milliy-tadqiqot institutiga taqdim etib borsin va rejaga asosan ularni o'quv kursiga jalb etish choralarini ko'rsin;

menejerlik o‘quv kursiga jalb etilgan direktorlar to‘g‘risida vazirlikka doimiy ma’lumot kiritib borsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rnbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir

X.Umarova

Toshkent sh.,
2024-yil "2"-aprel
106-son



Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2024-yil 2-apreldagi
106-son buyrug'iiga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2023-yil 28-dekabrdagi 578-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Menejerlik o'quv
kurslarining amaliy topshiriqlarini baholash va imtihon komissiyasini tashkil
etish tartibiga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'chimcha**

1. 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Yakuniy sinovlar o'quv kurslari oxirida test, keys va amaliy topshiriqlar shaklida o'tkaziladi.”;

2. 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Imtihon komissiyalari (keyingi o'rinnarda - Komissiya) 3 yoki 5 nafardan iborat tarkibda tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti (keyingi o'rinnarda - Institut) rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.”;

3. 9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Yakuniy sinovning keys topshirig'i 2-5 ta test savoldidan iborat bo'ladi. Keys topshirig'idagi testlarga maksimal 10 ball beriladi va har bir testning kognetiv darajasiga qarab ballar belgilanadi.”.

4. Quyidagi mazmundagi 23¹-band bilan to'ldirilsin:

“23¹. Belgilangan ballni to'play olmagan nomzod bir yil ichida navbatdagи yakuniy sinovda ishtirok etishi uchun maxsus portal orqali qayta ariza topshiradi. Bunda nomzoddan to'lov undirilmaydi.

Nomzodlarning qayta topshirish to'g'risidagi arizalari Markaz xodimlari tomonidan ko'rib chiqiladi va qayta topshirish to'g'risidagi ma'lumotlar (qayta topshirish sanasi, vaqt, joyi) maxsus portal orqali e'lon qilinadi.

Qayta topshiruvchi nomzodlar ro'yxati Institut rektorining buyrug'i asosida rasmiylashtiriladi.”.

5. 4-ilova matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 25 dekabrdagi
578-sون buyrug‘iga
4-ILOVA

**A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutining 2024-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi
davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori va direktor lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish
REJASI**

No	Yo‘nalishi nomi	Reja	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati	Qashqadaryo viloyati	Navoiy viloyati	Namangan viloyati	Samarqand viloyati	Surxondaryo viloyati	Sirdaryo viloyati	Toshkent viloyati	Farg‘ona viloyati	Xorazm viloyati	Toshkent shahar
	Hududlardi maktablar soni	10163	722	765	534	558	1225	366	716	1266	960	314	888	964	544	341
1.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari	1000	51	55	33	35	101	16	50	105	74	11	67	75	34	293
2.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlar	1500	107	113	79	83	181	54	106	187	142	47	131	140	80	50
	Jami	2500	158	168	112	118	282	70	156	292	216	58	198	215	114	343

Izoh: A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rektoriga reja va ehtiyojdan kelib chiqib, hududlar kesimi bo‘yicha belgilangan tinglovchilar sonini o‘zgartirish huquqi beriladi.”.